

**O'QUVCHILARGA INGLIZ TILIDA MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID
MATNLARNI O'QISHNI O'RGATISH TEXNOLOGIYALARI**

Kamolova Mahfuza Abduraxmonovna

*Namangan Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti Kafedrasida Adabiyotshunoslik
(ingliz adabiyoti) II kurs magistranti*

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilida mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qishni o'rgatish orqali rivojlantirish jarayoni tanlab olingan. Tadqiqot predmeti - ingliz tili darslarida matn o'qitishni rivojlantirish mazmuni, shakli, metod va vositalari. Tadqiqot maqsadi - ingliz tili darslarida mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qishni o'rgatish texnologiyalarini rivojlantirishdan iborat. Tadqiqot jarayonida mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qish o'rgatishni rivojlantiruvchi texnologiyalar takomillashtirilgan.

Kalit so'zlar: mamlakatshunoslik, matn, texnologiya, usul

Jahonda globallashtirish jarayonida ijtimoiy va ta'lim-tarbiya masalalarini samarali hal etish va demokratik jamiyat qurishda faol ishtirok etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni nazarda tutuvchi yuqori malakali va tashabbuskor kadrlar tayyorlashning ilmiy va amaliy ahamiyati beqiyosdir. Ingliz tili darslarida mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qitish va o'rganilayotgan til sohiblariga xos tarzda nutqiy muloqotda qo'llay olish malakasi rivojlantirish ustuvor vazifaga aylandi. Jumladan, AQSH, Angliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Braziliya, Rossiya va Finlandiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda matn o'qitish rivojlantirishga asoslangan o'qitish usullarini yaratish va takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini rivojlantirishning 2030 yilgacha bo'lgan Konsepsiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatidan yangilash, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish; xalq ta'limi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish" vazifalari belgilangan bo'lib, ular eng dolzarb muammolardan hisoblanadi [1].

Zamonaviy taraqqiyot asrida fan va texnikaning rivojlanishi, xalqaro aloqalarni kengayishi, yangi dunyoviy axborotlarni olish imkonini yanada kengaytirmoqda. Shu sababli insoniyat olamida ingliz tilini bilishga va unda nutqiy muloqot vositasi sifatida foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda [2].

Ayni damda, "ingliz tili" o'quv predmeti o'rniga "ingliz tili va madaniyatini" o'rgatish o'quv predmeti ta'lim dasturida o'z aksini topganligini ta'kidlab o'tish

lozim. Bundan ko'rinib turibdiki, Umumta'lim maktablarda ingliz tili o'qitishdan asosiy maqsad tili o'rganilayotgan mamlakatlar tarixi, madaniyati va urf-odatlarini kabi materiallar bilan o'rta umumta'lim maktabi o'quvchilarini yaqindan tanishtirish, millatlararo axborot almashish, xalqlar o'rtasida madaniyatlararo muloqotni o'rnatishdir.

Umumta'lim maktablarda ingliz tili o'qitishda zamon bilan hamnafas qiziqarli va axborotlarga boy mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qishni o'rgatish - o'quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirishga, ingliz tiliga oid nutqiy kommunikativ kompetensiyalari hisoblangan tilning gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv turlarini rivojlanishiga, ularning diqqat, xotira, idrok va mantiqiy tafakkur kabi psixologik qobiliyatlarini shakllanishiga imkon yaratadi. Bunda Umumta'lim maktab ingliz tili darsliklarida berilgan mamlakatshunoslikka oid matnlardan foydalanishning o'rni beqiyosdir.

Hozirda ingliz tili o'qitish metodikasida tilning mamlakatshunoslik, lingvomamlakatshunoslik va lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) sohalari keng o'rganilgan masalalardan biridir.

Ingliz tilining "mamlakatshunoslik asoslari" deganda – tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixi, geografiyasi, iqtisodi va boshqa sohalari to'g'risidagi materiallar bilan Umumta'lim maktab o'quvchilarini tanishtirish tushuniladi. Ingliz tilining mamlakatshunoslik sohasi til faktlarini o'zida to'liq qamrab oluvchi ekstralingvistik axborotlarni tahlil qilishga qaratilgan [3-7].

Har bir chet til fani o'qituvchisidan ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha izlanishni, doimiy ravishda o'z ustida ishlashni talab etadi. Ingliz tili o'qituvchisi ta'lim berish jarayonida muntazam ijodkor bo'lishi, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini o'rganib borishi lozim. Shuni ta'kidlash joizki, ingliz tili darslarida qo'llanayotgan darslik va qo'llanmalardagi mashq hamda topshiriqlar Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun yetarli darajada emasligi, o'qituvchining ingliz tili darslarida yetarli darajada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanmasligi o'quv jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Natijada, o'quvchining ingliz tilidagi lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish juda qiyin kechmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi, shu bilan birga, o'quvchining faolligini ta'minlovchi vositadir. Bunday usullar dars sifatini oshiradi, o'quvchilarni matnlar mazmuni orqali suhbat qurishga undaydi, ingliz tilidagi notanish so'z va iboralarni puxta o'zlashtirishda yordam beradi, uni jonli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirgi paytda ingliz tili o'qitish metodikasida xilma-xil noan'anaviy usullardan foydalanilmoqda. Ularga turli-tuman rolli o'yinlar, kompyuterdagi ingliz tili o'quv mashg'ulotlari, matn mazmunini tez o'zlashtirishga yordam beradigan usul va strategiyalar, og'zaki nutqni o'stirishga yo'naltirilgan qiziqarli mashqlar, tez aytishlar shular jumlasidandir. Ingliz tilida mamlakatshunoslikka oid matnlar

o'qitish jarayonida "case study", insert, klaster, zigzag, aqliy hujum, muammoni hal etish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tilganda, o'quvchining tilga bo'lgan qiziqishi yanada ortishiga sabab bo'ladi.

Ingliz tili o'qituvchisidan ta'lim jarayonida "case study", hamkorlikda o'qitish, kichik guruhlarda munozara, "amaliy o'yin" kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi ingliz ta'limi samaradorligini oshiruvchi mezonlardan biridir. Ingliz tili darolarida zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari, multimediya taqdimotlari, media-texnologiyalar, zamonaviy o'quv uslubiy materiallar, audiovizual vositalardan unumli foydalanishi Umumta'lim maktab o'quvchilarining ingliz tili o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini ortishi va o'quvchilar bilish faoligini o'sishiga turtki bo'ladi.

Tadqiqotimizda ingliz tilida matnlar, jumladan mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qishda qo'l keladigan va yaxshi samara beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Ulardan biri "Insert" strategiyasidir. "Insert" strategiyasi – (inglizcha - "Interactive noting system effective reading thinking") – ta'limda keng qo'llanilayotgan o'quv strategiyasi bo'lib, matn o'qish samaradorligini oshirishda yaxshi samara beradigan innovasion tizimdir.

Insert metodi – matn o'qib idrok etish jarayonidagi to'rt tarkibiy qismdan iborat bo'ladi. Unda matn hoshiyalariga quyidagilarni bildiruvchi belgilar qo'yib chiqiladi va shu belgilar asosida jadval tuziladi:

1. O'quvchi tomonidan idrok etilayotgan material (o'qilayotgan matn) uning bilganlariga mosligi; 2. O'qilayotgan matn o'quvchining bilganlariga zidligi (yoki o'quvchi "buni bilaman", deb o'ylaydi); 3) O'qilayotgan matn o'quvchi uchun yangilik ekanligi; 4) O'tilayotgan matn tushunarsiz yoki shu masala yuzasidan o'quvchi batafsilroq ma'lumot olmoqchi ekanligi.

Jadvalda qaysi belgi ko'proq bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilar bilan o'sha yo'nalishda ko'proq ishlashi lozim. O'quv materialini matn o'qish orqali o'zlashtirishga yo'naltirilgan mazkur metod o'quvchilarning matn bilan ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, ularda faol o'qish malakalarini tarkib toptiradi, mavjud bilimlarni mantiqiy takomillashtirib borishga o'rgatadi.

Insert jadvali mustaqil o'qish jarayonida olinadigan ma'lumot-larni bir tizimga keltirishga imkoniyat beradi. Oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi. O'quvchilar jadval tarkibi va uni to'ldirish qoidasi bilan tanishishadi va uni shaxsan uni rasmiylashtirishadi.

Matn belgilash tizimi:

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi . Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Ushbu usuldan foydalanishda o'qituvchi o'quvchining o'zlashtirish darajasini quyidagi topshiriqlar orqali nazorat qilishi va baholab borishi mumkin: qisqa javobni ko'zda tutuvchi savollar berish; qiyosiy tahlil topshiriqlari; matndagi bo'sh joylarni kalitda keltirilgan muqobil so'zlar bilan to'ldirish; jadval, krassvord, diagrammalarni to'ldirish; matnga amuqobil sarlavha tanlash; chalkash berilgan so'zlar, gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish; so'zlarda berilgan orfografik va imloviy xatolarni aniqlash; so'zlar va iboralarning o'z va ko'chma ma'nolarini, sinonim, antonim va omonimlarini topish.

"Insert" metodida Umumta'lim maktab o'quvchilari guruhlariga bo'linadi, guruhlar nomlanadi. O'qituvchi har bir guruh o'quvchilaridan mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so'raydi. Guruhlar navbati bilan fikr bildiradi. Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi. Faoliyat yakunlangach, o'qituvchi mavzuni yoritishga xizmat qiluvchi matnни o'quvchilarga tarqatadi. Matnda shunday topshiriq berilgan bo'ladi: a) matn bilan inglizcha tanishib chiqing; b) matnning bir qatoriga Z, S, D, ? belgilarni qo'yib chiqing.

Z – matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikr o'z aksini topgan bo'lsa;

S – matnda guruhlar tomonidan bildirilmagan fikr yoritilgan bo'lsa;

D – matnda bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lsa;

? – matn bilan tanishish jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelsa.

So'ngra guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini o'zaro o'rtoqlashadi, guruh belgisining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O'qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi. Har bir guruh yetakchisi fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama-qarshilik va tushunmovchiliklarni o'quvchilar tomonidan to'g'ri hal etish hamda tushunib olishlariga yordam beradi.

Ingliz tili darslarida ijobiy samara beradigan usullardan yana biri "Sinkveyn" usuli hisoblanadi. U 5 qator so'zlardan iborat bo'lib, son jihatdan har bir qator bitta so'z bilan ko'payib boradi. So'z o'rganilayotgan matnning asosiy negizini, muhim qoidalarini, bosh g'oyasini to'liq qamrab olmog'i lozim.

O'rganilgan matnning mazmun va mohiyatini bir nechta so'zlar bilan bayon qiladi. Sinkveynlar dars jarayonida yoki uyda bajarilishi, shuningdek, o'quvchilar guruhi yoki yakka tartibda ham tashkil etilishi mumkin. Sinkveyn usuli tillarni o'rganishda quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-qator-matn mavzusi (bitta otdan iborat); 2-qator-predmetning ifodasi (ikkita sifat) 3- qator-matndagi harakat ifodasi (uchta fe'l); 4-qator-mavzu predmetiga munosabatni bildiruvchi 4 ta so'z; 5-qator-mavzu mohiyatini kengaytiruvchi, to'ldiruvchi va umumlashtiruvchi 1 ta sinonim so'z.

Masalan: Uzbekistan sovereign independent country (O'zbekiston-suveren mustaqil davlat) mavzusi bo'yicha sinkveyn quyidagicha tuzilishi mumkin:

Uzbekistan, sovereign, independent, obtain, moving, developed, more hundred, nations live, in Uzbekistan, tolerant.

Sinkveynlar ingliz tilidagi soʻzlarning boʻgʻinlari boʻyicha ham boʻlishi mumkin: 2- 4- 6- 8- 2 boʻgʻinli soʻzlar asosida bir mavzuning mohiyati yoki bir grammatik qoida asoslab berilishi mumkin.

Umumtaʼlim maktab oʻquvchilarining sosiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi taʼlim jarayonini innovasion taʼlim texnologiyalari asosida tashkil etishni talab etadi. Tajribali ingliz tili oʻqituvchilarning darslarni kuzatish "Tanlov" metodi, "The half class lecture" (yarim guruh maʼruzasi) texnikasi, "Cubing" texnikasi, "Drama" (ogʻzaki nutqni rivojlantiruvchi) texnikasi, "Concept Mapping" texnikasi, "Tramp" rejasi, "Ping-pong" atamashunoslik strategiyasi, mahorat darslari, MOODLE platformasida yaratilgan dars ishlanmalari, trening texnologiyasi, "Jadallashtirilgan taʼlim" texnologiyasi, "Konsensus va konfrontasiya" kabi umumdidaktik interfaol metodlar sifatida qoʻllanayotganligini kuzatish mumkin.

Tadqiqotimizda matn bilan ishlashni metodikada maʼlum matnoldi, matnni oʻqish jarayoni va matndan keyingi bosqichlar doirasida oʻrgandik. Matnoldi va matndan keyingi bosqichlarda faoliyatning interaktiv shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Matnoldi mashqlari asosiy bilimlarni faollashtiradi, oʻquvchilarni axborotni idrok etishga tayyorlaydi, diqqatni va fikrlash faolligini oshiradi. Oʻquvchilarni xayolan oʻzlari tasavvur etgan faoliyat, pragmatik matn muhitiga olib kiradi. Ingliz tili darslarida oʻquvchilar oʻzaro hamkorlik qilish, oʻzlarini qulay his etish, erkin fikr almashish malakalarini egallaydi. Bu esa antisipasiya qobiliyatini rivojlantiradi. Keyingi faoliyatga qulay sharoit yaratish uchun matnoldi bosqichidagi barcha yoʻl-yoʻriqlar ijobiy boʻlishi kerak, bu oʻquv faoliyatining ijobiy muhitni yaratadi. Jamoaviy fikrlash davomida «birga ishlash koʻnikmalari» yuzaga keladi, bu intellektual qiyinchiliklarni yengishga koʻmaklashadi.

Matnoldi bosqichida oʻquvchiga tadqiqotchilik roli beriladi. Oʻquvchilar inglizcha matnni oʻqishda duch keladigan muammolarga kengroq yondashishning turli usullaridan foydalanishni taklif etiladi: 1. Oʻquvchilarda inglizcha matn qiziqish uygʻotishi lozim; 2. Ularga keyingi faoliyat uchun «fikrlash xaritasi», kommunikativ yoki ijtimoiy vaziyatda kutilayotgan oʻzgarishlarga tayyorlaydi, ularni oʻquvchi bugungi va avvalgi tajribasi bilan solishtiradi; 3. Bir muammoning bir necha yechimini koʻrib chiqish imkoniga ega boʻladi; 4. Oʻquvchini mashq bajarish jarayonida atrofdagilarni fikrlashini kuzatib, nazorat qilib boradi; 5. Keyingi axborotlarga eʼtibor qaratadi.

Birinchi matn oldi bosqichi mazmunini «Mu family» mavzusi bilan ishlash misolida koʻrsatib bermoqchimiz. Oʻquvchilarga sharhlash uchun tavsiya etilgan mavzularga qarab, ularga tanish boʻlgan kishilarni tassavur etadilar: oʻz qizchasi bilan oʻynayotgan ota, bolalariga kitob oʻqib berayotgan amaki, farzandlari bilan biror masalani muhokama qilayotgan ota-onalar. Demak, oʻquvchilar mavjud odamlar, ota-onalar va bolalarning oʻzaro munosabatlari hakida gapiradi. (Talk

about the parents and children.). Keyingi topshiriqda o'quvchilarga yaxshi ota-ona bo'lish uchun zarur hislatlar haqida fikr yozish taklif etiladi (Make a list of the things parents should do to be good).

Yuqorida keltirilgan matnoldi topshiriqlar namunalari matn ustida ishlash uchun qulay sharoit yaratadi. Muammoning dastlabki muhokamasi keyingi axborotni ko'ra bilish va tahlil qila olish malakasini rivojlantiradi.

Matnoldi bosqichining taklif etilgan mazmunli komponenti an'anaviysidan shunisi bilan farq qiladiki, unda real xayotiy, ba'zida to'lqinlantiradigan va jiddiy, ba'zida qiziqarli, matndagi keyingi axborot bilan bog'liq bo'lgan muammo muhokama etiladi. Bu boskichda an'anaviy tarzda talaffuz, grammatik va leksik qiyinchiliklarni bartaraf etish, matndagi axborotni sarlavhasidan, o'qituvchining savollaridan kelib chiqib, tahlil qilish ko'zda tutiladi.

Matn bilan ishlash bosqichi. "Yuqoridan quyiga" tamoyili bo'yicha tushunishning modelidan foydalanib, axborotni tushunish mexanizmlarini keltirib o'tamiz. Matnoldi faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra situativ axborot yoki kontekstual maqsadni ko'zda tutadi, mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qishni o'rgatib, nutqiy faoliyatga bilish xarakterini baxsh etishga, nutqiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, kognitiv ma'no yashiringan lingvomamlakatshunoslik birliklarini, madaniy ma'lumotlarni tushunish malakasini rivojlantirishga, eng asosiysi, mamlakatshunoslikka oid matnlarni maqsadga muvofiq tanlab, ingliz tiliga nisbatan muhabbat uyg'otishga intildik.

Tadqiqotimiz davomida, matnni o'qib tushunish bosqichida B.Blum tomonidan yaratilgan "Savol va topshiriqlarni loyihalash g'ildiragi" deb nomlangan usuldan foydalandik. Uning xarakterli xususiyati o'quvchini fikrlashga o'rgatishga qaratilgan bo'lib, Umumta'lim maktab o'quvchilarining sosiolingivistik kompetensiyasini rivojlantirishda ijtimoiy xarakterdagi matnni bilishi, tushunishi, tahlil qilishi, umumlashtirishi va baholash bosqichlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Bilish – matn mazmunida olg'a surilgan ijtimoiy g'oyalarning ta'lim- tarbiyaviy ahamiyatini bilish hisoblanadi. Shuningdek, olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qay holatda qo'llay olishni tushunib yetishdir. Tushunish esa – oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan yangi bilimlar o'rtasidagi tafovutni anglash, tushunish demakdir. Tahlil qilish – yangi ma'lumotlarni qismlarga ajratish, ularning o'zaro bog'liqligini tushunish. Taqqoslash, qiyoslash, tahlil qilish, xulosalash kabi psixik jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Umumlashtirish – matnni ijodiy davom ettirish, hayotiy voqealar bilan to'ldirish, tartibga solishni nazarda tutadi. Baholash – matnni to'g'ri baholay olish uchun matn mazmunini ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini to'la tushunib yetish va to'g'ri xulosa chiqarish. Yozuv taxtasida topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi g'ildirak chiziladi. Har bir guruhga o'qilgan matn yuzasidan topshiriqlar berib boriladi.

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Ushbu usulning afzallik tomonlari quyidagilardan iborat: 1. O'quvchilarni mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashga undash, dars jarayonida o'rganilayotgan matnni o'qishga qo'yilgan talablar hisoblangan - ta'limiy-tarbiyaviy g'oyalarni ajrata olish, bilish, anglash, ularni o'z hayotlariga tatbiq etish; 2. Xulosalar chiqarish, ijodiy hikoya qilib berish va baholashni integrallashgan uyg'un holda olib borish imkonini beradi; 3. Kichik guruhlarda ishlash orqali jamoaviy xulosalar chiqarish; 4. O'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni vujudga keltirish imkonini beradi.

Matn bilan ishlashning uchinchi bosqichida quyidagi o'ziga xos mashqlar bajariladi: 1. Monolog yoki dialogda ushbu matn va oldin o'tilgan materiallardan foydalanib, gapirish mashq qilinadi. 2. Yangi o'quv nutqiy vaziyat bo'yicha matndan foydalanib uning mazmunini gapirish. 3. Dialog mashqlarini bajarish.

Matn xususiyatiga ko'ra quyidagi tushunganlikni tekshirish mashqlari bajarildi:

1. "Scanning" mashqlari-matndan keyingi foydalanish uchun o'ziga xos konkret axborotni topish.

2. "Finding the facts" - keyinchalik o'z nuqtai nazarini asoslashda qo'llanadigan o'ziga xos faktlarni topish.

3. "Comprehension" - fikrlarni mazmunli xususiyatiga ko'ra tanlash - bu axborotlarni bir yo'nalishli qayta ishlash, izchil kognitiv amallarni bajarish.

4. "Making Differences" mashqi matnni o'qib chiqqandan keyin bajariladi. Bunda axborotni qayta ishlashda o'quvchining bir yo'nalishdagi fikrlashi amalga oshiriladi, bu esa fikrlash mantig'iga, verbal xotira rivojlanishiga ko'maklashadi.

Ingliz tilida matnni o'qish va tushunish bilan bog'liq yana bir texnologiya haqida gapirib o'tish mumkin.

1. "Klaster" metodi (Cluster" technique). Ushbu metod xorijiy mamlakatlarda keng tatbiq qilingan metod turi bo'lib, aynan ingliz tili o'qitishda ko'p qo'llaniladi. Ushbu metoddan matnni o'qish jarayonida duch keladigan keng ma'nodagi jumalarning mazmunini aniqlashda samarali natija beradi.

Umumta'lim maktab o'quvchilarining matndan keyingi mashqlarni bajarishda "Ikki qismli kundalik" innovasion pedagogik uslubidan foydalanish samarali natija beradi. Ushbu uslub o'quvchiga o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini tadqiq etish, o'qilgan mavzuning mazmunini o'z dunyoqarashi, hayotiy tajribalari asosida boyitilgan holda yozma ifodalash imkonini beradi. Ushbu uslubning qo'llanish tartibi quyidagicha bo'ladi: Uslubni qo'llashdan maqsad o'quvchilarda o'rganilayotgan sosiolingvistik mavzudagi matnning mohiyatiga ong'li ravishda ijodiy qiziqishini o'stirishdan iborat bo'ladi. Matnni o'qib bo'lgach yozuv daftarini vertikal tarzda ikki qismga bo'lish tavsiya etiladi. Chap tomonga o'quvchida qiziqish uyg'otgan matnda berilgan muallifning ijobiy yoki salbiy fikrlari va g'oyalardan iborat fikrlar yozish talab qilinadi. O'ng tomonga esa o'quvchilardan matndan ko'chirib olingan fikrlarga o'zlarining nuqtai nazarlarini asoslab yozishlari so'raladi.

Keyingi bosqichda har bir o'quvchi o'zi bajargan topshiriqni navbat bilan o'qiydi va gapirib beradi. Sinf o'quvchilari tomonidan savollar ham berilishi

mumkin, javoblar to'ldirilishi hamda chiqish qiluvchi o'quvchining ushbu sitata yuzasidan o'zining yozma variantini taqdim etishi ham kerak.

Shuningdek, o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, guruhdoshlaridan eshitganlarini o'zaro muhokama qilishlari, javoblarning to'g'ri yoki noto'g'riligini, ma'qul yoki noma'qul jihatlarini asoslagan holda hamkorlarini baholashlari lozim.

Tadqiqotimiz jarayonida matn bilan ishlashning tayyorlov, o'qib tushunish, matndan keyingi bosqichlaridan so'ng o'qish ko'nikmasini boshqa nuqt faoliyat turlari gapirish va tinglash orqali tekshiriladigan mashqlarni ishlab chiqdik.

Tadqiqotlarda tinglab tushinishga mo'ljallangan mashqlar sistemasi maqsadga ko'ra maxsus va maxsus bo'lmagan mashqlarga bo'linadi. Maxsus bo'lmagan mashqlarda tinglab tushunish yo'l-yo'lakay o'rgatiladi. Masalan: 1. Dars boshlanishidagi nutqiy vaziyat tinglanadi. 2. So'z ma'nosini ochish chog'ida muallim gaplarini eshitadi 3. O'quvchilarning suhbat chog'ida bir-birlarini tinglashadi.

Umumta'lim maktab o'quvchilarining o'qish ko'nikmasini tinglashning maxsus mashqlaridan foydalanib tekshirdik. Ular quyidagicha:

1. Ustundagi so'zlarni eshitish va takrorlash; 2. Tanish o'zaklardan yangi so'zlarni tinglash va tarjima qilish; 3. Tayyor jummalarni tinglash va qanday nutqiy vaziyatlarda aytib berish; 4. Matnni tinglab, yozma shakldagi bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirish; 5. Ikki-uchta qisqa jummalarni tinglash va ulardan gap tuzib aytish; 6. Matnni tinglash va sharhlab berish;

Demak, o'qish ko'nikmasini tinglab tushunish orqali tekshirilganda o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar hosil bo'ladi:

1. Matn mavzusini bilish; 2. Ishtirokchilarni bilish; 3. Matnni qisqacha bayon qilish; 4. Asosiy g'oyani bilish; 5. Tinglangan mazmunga baho berish.

O'quvchilar o'qigan matn haqidagi fikrlarini og'zaki shaklda monolog yoki dialogda ifodalashi mumkin. Monologda o'quvchilar shaxsiy hayot tajribasini ishga solib, fikr mulohazalarini izchil bayon qiladilar, o'z munosabatini bildiradilar. Dialogda esa suhbatdoshlar turli xabarlarini bir-birlariga yetkazadilar, fikrlarini isbotlaydi, tanqidiy yondashadilar va suhbatdoshni ishontira olishlari kerak bo'ladi.

Tayyorlangan dialog o'rgatish mashqlariga: 1. Savollarga javob qaytarish; 2. Turli savollar berish; 3. Mavzu bo'yicha dialog tuzish; 4. Monolog shaklidagi matnni o'qib, dialoga aylantirish.

Tayyorlanmagan dialog o'rgatish mashqlariga: 1. Savollarga asosli javob qaytarish; 2. Boshqa o'quvchilar xam aralashib turadigan dialog yaratish; 3. Savol-javob o'yini (viktorina) o'tkazish; 4. Munozara va tortishuv shaklidagi dialog o'tkazish.

Tayyorlanmagan gapirish mashqlarining tayyorlanganlardan farqi shundaki, birinchidan, ularda nutqiy ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan yangi axborot mavjud, ikkinchidan, axborot almashish, mustaqil fikr bayon etish, munosabat bildirish, baholash, izohlash kabi faoliyat turlari mavjud.

Nutq faoliyatining gapirish turida asosan “Bahs – munozara” usuli samarali natija beradi. “Bahs – munozara” usul mashg‘ulotlarda aniq muammo bo‘yicha fikr almashish, muhokama shaklida amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.

Bu usulda quyidagilar nazarda tutiladi:

- Matn yuzasidan savollarga chuqur o‘ylab ko‘rib, ularni mohiyatini tushunishni ta‘minlash;
- O‘quvchilar dalillar va ularga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib yetishga o‘rgatish;
- O‘zaro fikr almashinuv ko‘nikmalarini shakllantirish;
- O‘quvchilarning shaxsiy fikrida mustahkam turishiga va uni himoya qilishiga o‘rgatish;

Umumta‘lim maktablari darsliklarida berilgan mamlakatshunoslikka oid matnlarni o‘qish va ularni tushunganlikni turli zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘lash orqali tekshirib ko‘rdik.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, umumta‘lim maktablarida mamlakatshunoslikka oid matnlarni o‘qishni o‘rganish texnologiyalari ingliz tilini amaliy, umumta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini yuzaga chiqishida vosita vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PF-5712-son. –2019. – 29 aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Ta‘lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 12 (792) son. –2017. –B. 167-169.
3. Ляховицкий М. В. Методика преподавания иностранных языков: Учебное пособие. –Москва: Высшая школа, –1981. –159 с.
4. Исмоилова З.К. Ўқувчи-талабаларнинг социолингвистик- педагогик маданиятини ривожлантириш: Пед. фан. ном.... дис. – Тошкент, ТИҚХМИ, – 2000. –133 б.
5. Аршинова Н.И. Формирование иноязычной лингвистической компетенции студентов вуза с применением средств компьютерных технологий: английский язык как вторая специальность: Дис. канд. пед.наук. – Петрозаводск, –2007. – 189 с.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида” – 2017. – 6 апрелдаги 187-сонли қарори.

7. Kamolova Mahfuza Abduraxmonovna. Ingliz tili darolarida mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qishni o'rgatish usullari. Journal of new century innovations. Volume-4 17_Issue-1_November_2022. 72-75 b.

